



SIRDARYO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot
2023- yil yanvar-iyul*






CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023- yil 1- avgust holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **2 896** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **57** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **2 839** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTlar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



O'sish sur'ati

Tarkibiy qism



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-iyul oylarida Sirdaryo viloyatining chakana savdo tovar aylanmasi **2 528,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **104,4 %** ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **201,9** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **91,4 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **2 326,3** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **105,7 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **274,4** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **112,1 %**) tashkil etdi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI




Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	2 528,2	104,4	201,9	91,4	2 326,3	105,7
Guliston sh.	964,5	105,1	86,3	90,5	878,2	106,8
Shirin sh.	33,1	104,2	0,1	45,0	33,1	104,5
Yangiyer sh.	244,1	105,9	14,3	105,0	229,8	105,9
<i>tumanlar:</i>						
Boyovut	152,3	100,3	45,1	92,4	107,2	104,0
Guliston	128,3	103,7	26,3	7,2 m.	102,0	85,0
Mirzaobod	180,3	108,7	6,9	179,1	173,4	107,0
Oqoltin	60,2	101,9	2,0	118,8	58,2	101,4
Sardoba	98,2	110,8	0,9	73,5	97,3	111,3
Sayxunobod	99,5	103,1	7,2	2,5 m.	92,4	98,7
Sirdaryo	485,1	101,7	10,0	20,4	475,1	110,9
Xovos	82,5	104,0	2,9	3,3 m.	79,7	101,5

2023- yilning yanvar-iyul oylarida 2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan viloyatning Yangiyer shahri (**105,9** %), Mirzaobod (**108,7** %) va Sardoba (**110,8** %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi
(yanvar-iyul, mlrd.so'm)




So'nggi **6 yillikda** chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2019- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2018- yilning mos davriga nisbatan **110,0 %** ni yoki **1 584,8** mlrd. so'mni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati oylar kesimida (foizda) (2023- yil yanvar –iyul oylari)



2023- yilning yanvar-iyul oylarida o'sish sur'ati 104,4 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Guliston shahri **38,2 %** bilan **964,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa, Shirin shahri **1,3 %** bilan **33,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda kamayish kuzatildi.


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **2 326,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **105,7 %** ni tashkil qildi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **92,0 %** ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **8,6 %** ga kamaydi va **201,9** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **8,0 %** ulushiga to'g'ri keldi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Shirin sh. (**99,8 %**), Sardoba (**99,1 %**) va Sirdaryo (**97,9 %**) hududlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **8,0 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Boyovut (**29,6 %**), Sayxunobod (**7,2 %**), Guliston (**20,5 %**) tumanlarida kuzatildi.

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimida ma'lumot


	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
Sirdaryo viloyati	2 806,9	102,3
Guliston sh.	9 953,7	103,1
Shirin sh.	1 717,6	103,1
Yangiyer sh.	5 183,2	102,5
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	1 112,5	98,5
Guliston	1 640,0	101,2
Mirzaobod	2 273,9	105,9
Oqoltin	1 088,2	99,7
Sardoba	1 412,5	109,2
Sayxunobod	1 213,7	101,0
Sirdaryo	3 585,5	99,9
Xovos	817,9	102,3

2023- yilning yanvar-iyul holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **2 806,9** ming. so'mni (2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **102,3** %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Guliston shahri (**9 953,7** ming. so'm), Yangiyer shahri (**5 183,2** ming. so'm) va Sirdaryo (**3 585,5** ming. so'm) tumani hissasiga to'g'ri keldi.

Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar-iyul oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **274,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **112,1** % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **74,9** mlrd. so'mni (**74,7** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **199,5** mlrd so'mni tashkil etdi (**138,0** %).

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi
(mlrd. so'm)



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)




UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilionlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	274,4	112,1	74,9	74,7	199,5	138,0
Guliston sh.	44,2	82,9	44,2	82,9	0,0	0,0
Shirin sh.	-	-	-	-	-	-
Yangiyer sh.	7,0	73,0	7,0	73,0	-	-
<i>tumanlar:</i>						
Boyovut	7,9	81,3	7,9	81,3	-	-
Guliston	30,8	103,4	3,0	112,2	27,8	102,6
Mirzaobod	58,1	227,8	-	-	58,1	227,8
Oqoltin	-	-	-	-	-	-
Sardoba	59,1	159,7	1,2	31,0	57,9	175,2
Sayxunobod	32,2	86,7	-	-	32,2	91,5
Sirdaryo	13,9	72,5	11,6	61,0	2,3	205,8
Xovos	21,2	89,9	-	-	21,2	89,9

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;








– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023-yilning yanvar-iyul oylarida Viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **74 853,2** mln. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**34 291,1** mln. so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari		Mln. so'm
	Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari	34 291,1
	Non va non mahsulotlari	9 132,1
	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	7 230,9
	Tovuq go'shti	5 501,1
	Qurilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yong'och, bodom, pista va boshqalar)	5 453,3
	Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...)	4 600,1
	Tuxum	2 967,9
	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak	66,6
	Ziravorlar	3 349,7
	Tuzlamalar	1 476,2
	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari (manzarali va qishloq xo'jaligi)	784,2
	Nooziq-ovqat tovarlari	0,0

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023- yilning yanvar-iyul oylarida Viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **199 499,0** mln. so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **160 995,2** mln. so‘m, qo‘y va echkilar – **32 118,4** mln. so‘mni, otlar – **6 121,1** mln. so‘mni, parrandalar – **264,3** mln. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		Mln. so‘m
	2 yoshdan katta bo‘lgan qoramollar	67 155,9
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	26 760,8
	1 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	67 078,5
	Qo‘ylar	24 951,4
	Otlar	6 121,1
	Echkilar	7 162,2
	Kurka, o‘rdak, g‘oz	141,2
	Tovuqlar	119,5
	Quyionlar	5,7
	Qushlar	2,7

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023- yil 1- avgust holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni **890** tani tashkil etdi.


2023- yilning yanvar-iyul oylarida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasining ulushi **2,9** % ni tashkil etib, **73 506,2** mln. so'mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **6,7** % ga ko'paydi. Bunda savdo aylanmasining **89,3** % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami mln. so'm	2022- yil yanvar-iyul oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma -lar, mln. so'm	2022- yil yanvar- iyul oyiga nisbatan, foizda	Yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlar, mln. so'm	2022- yil yanvar-iyul oyiga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	73 506,2	106,7	65 611,0	106,9	7 895,2	105,0
Guliston sh.	36 088,8	111,2	33 848,8	111,5	2 240,0	107,0
Shirin sh.	1 398,5	101,9	1 257,1	101,6	141,4	105,0
Yangiyer sh.	10 677,6	109,0	9 445,7	109,3	1 231,9	106,0
<i>tumanlar:</i>						
Boyovut	2 198,1	84,4	1 692,8	79,8	505,4	104,0
Guliston	5 243,7	102,3	4 722,2	101,5	521,5	110,0
Mirzaobod	4 302,2	105,2	4 056,5	105,4	245,7	103,0
Oqoltin	1 847,5	105,2	1 491,4	106,2	356,0	101,0
Sardoba	1 395,2	104,1	1 040,0	104,9	355,3	102,0
Sayxunobod	2 364,6	105,8	1 994,5	106,6	370,1	102,0
Sirdaryo	6 646,6	100,2	4 882,3	99,0	1 764,3	104,0
Xovos	1 343,4	89,5	1 179,8	87,7	163,6	105,0

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- avgust holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish) **205,1** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **5,5 %** ga ko'paydi. Shuningdek, kichik biznes korxonalarini savdo hajmi **198,2** mlrd. so'm (o'sish sur'ati **105,8 %**), xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – **6,9** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **97,0 %**) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot




	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Sirdaryo viloyati	205,1	100,0
Guliston sh.	72,7	35,4
Shirin sh.	0,6	0,3
Yangiyer sh.	4,8	2,3
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	1,3	0,6
Guliston	7,5	3,7
Mirzaobod	0,6	0,3
Oqoltin	71,3	34,8
Sardoba	3,2	1,6
Sayxunobod	1,6	0,8
Sirdaryo	40,8	19,9
Xovos	0,7	0,3


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Guliston shahri (**72,7** mlrd. so'm), Oqoltin (**71,3** mlrd. so'm) va Sirdaryo (**40,8** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar-iyul oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **1 766,7** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **7,1 %** ga ko‘paydi.



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **1 386,0** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **92,0 %** ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **78,5 %** ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI



2023- yil 1- avgust holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **1298** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **19** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **1 279** tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga eng yirik korxonalar Boyovut (**163,6**), Oqoltin (**183,7**), Sirdaryo (**121,1**) hamda Xovos(**119,3**) tumanlarida kuzatildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	1 766,7	107,1	380,6	2,7 m.	1 386,0	92,0
Guliston sh.	486,7	90,7	12,1	56,0	474,6	92,1
Shirin sh.	6,4	90,9	-	-	6,4	90,9
Yangiyer sh.	94,2	91,6	0,5	91,5	93,7	91,6
Boyovut	177,0	163,6	101,1	4,1 m.	75,9	90,3
Guliston	28,8	93,4	11,4	101,0	17,4	89,0
Mirzaobod	71,8	91,7	10,8	93,0	61,0	91,5
Oqoltin	38,8	183,7	34,5	3,0 m.	4,3	44,9
Sardoba	57,1	90,6	11,5	92,1	45,5	90,2
Sayxunobod	135,6	92,4	11,6	91,0	124,0	92,6
Sirdaryo	578,2	121,1	153,1	6,5 m.	425,1	93,7
Xovos	92,1	119,3	34,0	2,7 m.	58,1	89,9



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistika bo'limi**